

ABDULHAMID CHO'LPON ASARLARIDA TARIXIY XOTIRA VA MA'NAVIY TARBIYA MASALASI

Akmaljonov Akbarjon Akmaljon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti Tarix yo'nalishi
talabasi

Akmaljonovakbarjon2001@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13133012>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining so'nmas yulduzlaridan biri bo'lgan va xalq dardida yonib ijod qilgan yozuvchi Abdulhamid Cho'lpon Sulaymon o'g'li hayoti va ijod yo'li va uning asarlaridagi tarixiy xotira va ma'naviy tarbiya masalalari haqida fikrlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ma'naviyat, taraqqiyotparvar, panturkizm, tarbiya.

THE PROBLEM OF HISTORICAL MEMORY AND SPIRITUAL EDUCATION IN THE WORKS OF ABDULHAMID CHOLPON

Abstract. In this article, one of the eternal stars of Uzbek literature, writer Abdulhamid Cholpon Sulayman, who is one of the stars of Uzbek literature and who created works burning in the pain of the people, the life and creative path of his son, as well as thoughts on the issues of historical memory and spiritual education in his works. is stated.

Key words: modernism, spirituality, development, pan-Turkism, education.

ПРОБЛЕМА ИСТОРИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ И ДУХОВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУЛХАМИДА ЧОЛПОНА

Аннотация. В этой статье одна из вечных звезд узбекской литературы, писатель Абдулхамид Чолпон Сулейман, писатель, сгоревший в боли народа, жизненный и творческий путь своего сына, а также размышления по вопросам исторической памяти и духовного образование говорится в его произведениях.

Ключевые слова: модернизм, духовность, развитие, пантюркизм, образование.

KIRISH

Cho'lpon Abdulhamid Sulaymon o'g'li, asl ismi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Yunusov — o'zbek shoiri, yozuvchi, dramaturg va publitsist, yangi o'zbek she'riyatining asoschilaridan biri. U o'z asarlarini tahallus Cho'lpon bilan imzolagan. Cho'lpon, Qalandar, Mirzaqalandar, Andijonlik taxalluslari bilan mashhur bo'lgan, shu taxalluslar bilan ijod qilgan Abdulhamid Sulaymon biz bilan bir zamonda yashagan bo'lsa-da, uning tavallud kuni bizga ma'lum emas.

Ayrim ma'lumotlar va qo'llanmalarda uning tug'ilgan yili turlicha keltirilgan. Masalan, 1883, 1896, 1897, 1898 kabi yillar taxminiy yillar hisoblanadi. Ushbu sanalar ichida haqiqatga yaqini sifatida 1898-yilni olishimiz mumkin. Chunki bu haqida Cho'lponning 1908-yilda tug'ilgan singlisi Foiqa Sulaymon qizi o'z ma'lumotlarida keltirib o'tgan.

Shunday qilib, Abdulhamid Cho'lpon Sulaymon o'g'li Andijonning Qoraterak mahallasida 1898-yilda dunyoga kelgan. Bo'lajak shoirning otasi Sulaymonqul bazzoz nomi bilan tanilgan savdogar, davrining o'qimishli, taraqqiyotparvar kishilaridan edi. Cho'lponning otasi ham jadidchilik harakatlariga xayrixoh bo'lgan. Sulaymonqul bazzozning gazeta endi rivojlanayotgan paytda uni yuksalishiga ulkan hissa qo'shgani ham jadidchilikka xayrixoh bo'lmaganligining yaqqol dalilidir. Cho'lponning otasi Sulaymonqul bazzoz o'g'lini ham savdo ishlariga jalb qilmoqchi bo'ladi va unga gavjum joydan do'kon ochib beradi, Cho'lpon ham munosib farzand sifatida do'konni risoladagiday yurgizgan. Ammo uning ko'ngli boshqa narsada edi, ya'ni u chin yurakdan ma'rifatchi bo'lishni istar edi. Shuning uchun Sulaymon bazzoz o'g'lining bilim olishini xohladi va unga zarur shart-sharoitlar yaratib berdi. Uning o'g'liga olib bergan jurnallari, chet davlatlarida chiqayotgan jurnallar obunasi juda ko'p mablag'ni talab qilardi, shunday bo'lsa-da, Abdulhamidning otasi o'g'lidan molini ayamagan. Shunday imkoniyatlardan foydalanib bo'lajak shoir 1913-yilning o'zida turk tarixiga doir asarlarni o'qib chiqqan. "Shu bilan birga, Cho'lpon 1918-Andijonda o'qtuvchilik qilgani haqida anketa malumoti ham bor"¹. 1916-yilda Cho'lpon bilan ilk bor uchrashgan M.Muhammadjonov eslab shunday yozadi: "Abdulhamid har kuni xususiy ravishda ruscha o'qir edi. Tatariston, Ozarbayjon, Hindistonda chiqadigan hamma gazeta va jurnallarga mushtariy bo'lib, ruscha gazetalarni ham o'qib turar edi"². Abdulhamid Cho'lpon madrasada, rus-tuzem maktabida tahsil olgan. Ammo uning qachon, qaysi maktab yo qaysi madrasada qanday odamlar bilan taxsil olganligi haqida ma'lumotlar keltirilmagan. Abdulhamid Cholpon taxminan o'n olti yoshidan o'z ijodini boshlagan. Uning dastlabki asarlari "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona" kabi gazetalar va Orenburgda chiqqan "Sho'ro" jurnalida chop etilgani aytiladi. Lekin inqilob yillaridan oldingi ijodi deyarli xalqqa taqdim etilmagan. Hozirgi kunda bizning qo'limizda Cho'lponning "Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar", "Adabiyot nadir?" singari maqolalari, "O'sh" ocherki, "Qurboni jaholat" felyetoni, "Do'xtur Muxammaddiyor" hikoyasi mavjud, xolos. Oz bo'lsa-da bizgacha yetib kelgan bunday nodir asarlarni asrab-avaylashimiz va ulardan ma'naviyatimizni rivojlantirishda unumli foydalanishimiz lozim.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi arxivi Farg'ona viloyati filiali. 1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 211-ish, 86-bet.

² Muhammadjonov M. Turmush urinishlari. – Toshkent, 1964. – B.30.

Sobiq sho'ro davrida yurtimizda insonlarga nisbatan juda ko'p nohaqliklar, tahqirlashlar va o'z ta'sirini o'tkazish kuchaygan bir paytda xalq orasidan Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon kabi xalqparvar jadidlar yetishib chiqdi. O'zi aslida jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni kengaytirishga chaqirgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizim g'oyalarini targ'ib qilishgan. Jadidchilik harakatining namoyondalari o'zlarini taraqqiyotparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. Shunday jadidlardan biri bizga yaxshi tanish bo'lgan jonkuyar yozuvchi, adib Turkiston yoshlarining sevimli ijodkor yozuvchisi, Andijon o'g'loni, ajoyib asarlar muallifi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpondir. "Cho'lpon muhtoriyatchilik harakatida faol qatnashgan, hammaslamlari bilan Turkistonning turli shaxarlariga borib targ'ibot ishlari bilan shug'illangan"³ U asarlarida o'z xalqining qiynalayotganini madh etadi. U xalqini shunchalar sevganki, o'z she'rlarining birida shunday yozadi:

Uzoq... og'ir yo'lga chiqqan yo'lchiman,
Bu yo'llarda qilog'uzim yulduzdir.
Men yurtimning pok istakli kuchiman,
U yulduzning tugalishi kunduzdir.
Tomirlarim olov kabi qaynagan,
Qonlarini kechmishlardan ilmishdir,
Bilagimda irg'ib, chopchib o'ynagan,
Unutmaki, oyoqlaring tolmishdir.
Uzoq yo'lning yo'lchisiman, boraman,
Istagimni bu yo'llardan olaman!...

Buxoro. 1912, 12-dekabr

Cho'lponning bunday she'rlari xalqning ma'naviyatini yuksaltirish uchun juda qo'l keladi. Sho'ro davrida yozilgan bunday she'rlar ommaga taqdim etilmagan. Agarda o'sha davr hukumati shunday she'r va asar yozayotgan shoir va yozuvchilarni topib olsa, hech ayab o'tirmagan, vatan xoini sifatida qatag'on qilgan. Ko'p yillik zulmdan so'ng yorug' kunlar keldi va yozuvchilarimizning asarlari bizga qaytarildi.

³ Sharq yulduzi. 1993, 5-6-sonlar, 138-bet

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Cho'lponning she'rlari hozirgi kun yoshlarining ma'naviyatini yuksaltirishda xizmat qiluvchi tuganmas xazina hisoblanadi. Nafaqat Cho'lpon, balki boshqa jadidlar va yozuvchilarning vatanni madh etib yozgan asarlari ham ma'naviy tarbiyaga katta ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar tarbiyasida Cho'lpon va shu kabi adiblarning asarlari foydalidir. Cho'lponning o'limidan oldin aytgan gapining o'zi ham inson ma'naviyatiga kuchli ta'sir qiladi: "Haq yo'lida bosh ketsa, eh deydigan yigit emasman" ... Shunday mard va jasur yozuvchi va shoirlar yetishib chiqqan yurtida yashash faxrlidir.

REFERENCES

1. Ozod Sharafiddinov. Cho'lpon. – Toshkent: Cho'lpon, 199- yil
2. Cho'lpon. She'rlar [Matn]: adabiy-badiiy / Cho'lpon. – Toshkent: Akademik nashr, 2020. – 272b.
3. D. Quronov. Jadidlar. Abdulhamid Cho'lpon. [Matn]: risola. /– Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2022. – 160 b.